



2023-yil 4-yanvar

“O'zkimyosanoat” AJning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari haqidagi yillik hisoboti

2022-yil davomida “O'zkimyosanoat” AJga 27 ta korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida murojaatlar kelib tushgan.

Ularning 8 tasi ishonch telefoni, 8 tasi Prezident virtual qabulxonasi, 1 tasi Xalq qabulxonasi va 10 tasi jamiyatning pochta manzili orqali kelib tushgan. Murojaatlar hududlar kesimidagi tahlili shuni ko'rsatdiki, 5 tasi Qashqadaryo viloyati, 7 tasi Navoiy viloyati, 2 tasi Farg'ona viloyati, 2 tasi Toshkent viloyati, va 1 tasi Qoraqalpog'iston Respublikasida yashaydigan fuqarolardan yuborilganligi ma'lum bo'lgan.

Barcha murojaatlar tegishligi bo'yicha “O'zkimyosanoat” AJ Komplayens xizmati hamda tizim korxonalarini Komplayens xizmati xodimlari bilan hamkorlikda o'rganib chiqilgan.

Aloqa kanallari orqali kelib tushgan murojaatlarning o'rganishlari natijasida 12 ta holatda to'plangan hujjatlar holatlariga huquqiy baho berish uchun huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga taqdim etildi, 4 ta murojaatlarda manfaatlar to'qnashuvi holatlari mavjudligi o'z tasdig'ini topganligi munosabati bilan faoliyat yuritayotgan xodimlar bilan mehnat shartnomalarini bekor qilish choralari ko'rilgan va 5 ta holatda mansabdor shaxslarga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llanilgan.

Misol uchun, Farg'ona shahrida yashovchi fuqaro M.M. tomonidan kelib tushgan murojaat asosida “Farg'onaazot” AJning Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash bo'limi xodimi G.R.ning noqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan xizmat tekshiruvini o'tkazilib, xizmat tekshiruvini xulosasiga asosan xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilingan. Shuningdek, mazkur bo'limdagi xizmat vazifalarini to'laqonli bajarmagan 4 nafar xodimlarga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llanildi.

Navoiy viloyatida yashovchi fuqaro Sh.R.ning murojaati asosida “Navoiyazot” AJning 56-sex xodimlariga nisbatan xizmat tekshiruvini o'tkazilib, sex balansida bo'lgan 182 dona 25,9 mln.so'mlik alyumin plitkalarini talon-taroj qilinganlik holati o'z tasdig'ini topganligi sababli to'plangan hujjatlar tegishli tartibda Navoiy shahar IIBga yuborilib, oqibatda tegishli tartibda Jinoyat Kodeksining tegishli moddalari bilan jinoyat ishi qo'zg'atilib, sudning hukmi bilan jazo muqarrarligi ta'minlangan.

“Navoiyazot” AJning bir guruh xodimlarining jamoaviy murojaatlari asosida “O'zkimyosanoat” AJning Komplayens xizmati tomonidan joyiga chiqqan holda xizmat tekshiruvini o'tkazilib, “Navoiyazot” AJning mas'ul xodimi S.E. o'z mansab vakolatidan foydalanib, hujjatlarni soxtalashtirgan holda xizmat safarlari, ish haqlari, transport vositalari xarajatlari, ijara haqi to'lovlari va mukofot pullarini (jami 591,5 mln. so'm) noqonuniy o'zlashtirganlik holati o'z tasdig'ini topgan, holat yuzasidan to'plangan hujjatlar huquqiy baho berish uchun prokuratura idorasiga yuborilgan. Prokuratura idoralari tomonidan jinoyatni sodir etgan shaxslarga nisbatan Jinoyat kodeksining 167- va 205-

moddalari bilan jinoyat ishi qo'zg'atilib, tergov harakatlari olib borilgan.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan korrupsion va boshqa qonunbuzilish holatlarining kelib chiqish sabab va omillari tahlil qilinib, mavjud korrupsion xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarning 2023-yilgi rejasi tasdiqlandi. Shuningdek, kelib tushgan murojaatlarni o'rganish natijasida aniqlangan holatlarning salbiy oqibatlari, zavod va korxonalaridagi mansabdor shaxslarning javobgarligi masalasini kuchaytirish mavzularida "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisi rahbarligida jamiyat shaxsiy tarkibi va tarmoq korxonalari rahbarlari ishtirokida profilaktik suhbat va seminar tadbirlari o'tkazilgan.

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/anticorruption/report/report-2022>